ANIMATSION MULTFILMLAR SINXRON TARJIMASINING BOLALAR KOGNITIV RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI VA LISONIY XUSUSIYATLARI

Turg‘unova Irodaxon Xayrulla qizi
O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti Sinxron tarjima (Ingliz tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: **Bayjanova Oqila Iskandarovna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

Annotatsiya

Mazkur tezisda animatsion filmlarni sinxron tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan lisoniy strategiyalar va ularning bilingval bolalar nutqiy rivojlanishiga ta’siri tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida sinxron tarjimadagi sintaktik kompressiya, semantik filtratsiya va ma’noviy kompressiya usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar

sinxron tarjima, dublyaj, kognitiv yuklama, multimodal ta’lim, sintaktik kompressiya, semantik filtratsiya, bilingvalizm.

Bugungi shiddatli axborot asrida zamonaviy media-makon bolalar hayotining ajralmas qismiga, animatsion multfilmlar esa shunchaki ko‘ngilochar vosita emas, balki yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi va til o‘rganish jarayonini jadallashtiruvchi o‘ziga xos “virtual murabbiy”ga aylandi. Multfilmlar orqali bola dunyoni anglaydi, ijtimoiy rollarni o‘rganadi va eng muhimi, nutqiy ko‘nikmalarini boyitadi. Ayniqsa, audiovizual kontentning sinxron tarjima qilinishi o‘zining operativligi, jonli ijrosi va tomoshabin bilan o‘rnatiladigan o‘ziga xos interaktiv muloqoti bilan an’anaviy dublyajdan sezilarli darajada ajralib turadi. Biroq, bolalar auditoriyasi uchun sinxron nutqni shakllantirish jarayoni o‘ta nozik va mas’uliyatli vazifadir. Bu yerda tarjimondan nafaqat ikki tilni mukammal bilish, balki yosh kitobxon yoki tomoshabinning ruhiyatini his qilish, ularning psixolingvistik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olish talab etiladi. Chunki bolalar kattalarga qaraganda axborotni kognitiv jihatdan boshqacha qayta ishlaydi; ular uchun murakkab jumlalar yoki tushunarsiz iboralar nafaqat tarjimaning sifatini pasaytiradi, balki kontentga bo‘lgan qiziqishning so‘nishiga ham sabab bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘zbek tarjimashunosligida audiovizual materiallarni bolalar idrokiga moslashtirish, sinxron tarjimada qo‘llaniladigan lisoniy filtratsiya va kompressiya mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir.

John Swellerning “Kognitiv yuklama nazariyasi”(Cognitive Load Theory) dissertatsiyamizning konseptual o‘zagini tashkil etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, insonning ishchi xotirasi (working memory) ma’lum bir vaqt oralig‘ida cheklangan hajmdagi axborotnigina qayta ishlashga qodir bo‘lgan “tor yo‘lak”ga o‘xshaydi. Sinxron tarjima qilinayotgan animatsion multfilmni tomosha qilish jarayonida bolaning miyasi bir vaqtning o‘zida bir-biriga bog‘liq, ammo turlicha tabiatga ega bo‘lgan uchta yirik axborot oqimi bilan to‘qnash keladi. Ulardan birinchisi bola multfilm qahramonlarining harakatlarini, mimikalarini va rang-barang voqealar rivojini tahlil qiladi. Fon rejimida eshitilayotgan xorijiy tildagi nutq va musiqiy bezaklar audial kanalni egallaydi. Uchunchisi esa tarjimon tomonidan taqdim etilayotgan o‘zbek tilidagi nutqni anglash va uni tasvir bilan bog‘lash jarayoni kechadi. Tadqiqotimizning natijalari shuni ko‘rsatadiki, agar tarjimon nutqni ixchamlashtirmasa (kompressiya qilmasa), bolaning ishchi xotirasi haddan tashqari yuklanish (cognitive overload) holatiga tushadi. Bunday vaziyatda bola axborotning bir qismini shunchaki boy beradi: u yo tasvirni ko‘radi-yu, tarjimani eshitmaydi, yoki tarjimani tushunaman deb voqealar rivojidan uzilib qoladi. Original audio (ingliz tili) va tarjima

(o‘zbek tili) hajmining bir xil balandlikda (volume) berilishi bolalarda jiddiy “lisoniy chalg‘ish” (*linguistic interference*) holatini keltirib chiqarshini tadqiqotlarimiz aniqlagan. Ikki xil tildagi nutq to‘lqinlarining bir vaqtda va bir xil quvvatda kelishi miyaning audial filtrlash qobiliyatini susaytiradi, natijada bola hech bir tilni to‘liq anglay olmaydi. Tajriba davomida original audio darajasini tarjimaga nisbatan 25-30% gacha pasaytirish taklif etildi. Bu metod "fon va figura" effektini yaratib, bolaning e’tiborini asosiy axborot manbayiga (o‘zbek tilidagi tarjimaga) yo‘naltiradi. Shunisi qiziqki, ushbu yondashuv nafaqat tushunish darajasini oshiradi, balki bolaning ikki til o‘rtasidagi farqni anglash, ya’ni kodlarni almashtirish (*code-switching*) mahoratini ham tabiiy ravishda charxlaydi.

Sinxron tarjima jarayonida vaqt va kognitiv resurslarni tejash maqsadida biz uchta asosiy lisoniy strategiyani tizimlashtirdik. Ulardan birinchisi bu usulda nutqning mazmuniy o‘zagini saqlab qolgan holda, uning tashqi qobig‘i — murakkab modal konstruktsiyalar va ehtimollik bildiruvchi birliklardan “tozalanadi”. Masalan, *“You'll have to stay”* kabi ko‘p komponentli modal birikma o‘rniga *“Turishing kerak”* kabi bitta predikatning qo‘llanilishi nutq tempini 40% ga tezlashtiradi va qahramonning ekrandagi harakatiga aniq moslashish imkonini beradi. Ikkinchisi esa nutqdagi pragmatik jihatdan ortiqcha hisoblangan “to‘ldiruvchi” elementlar (fillerlar: *well, oh, hmm, okay*) tushirib qoldiriladi. Bu strategiya bolaning diqqat-e’tiborini gapning “shovqinli” qismlaridan xalos qilib, bevosita harakatga (*action*) yo‘naltirishga xizmat qiladi. Oxirgisi esa bu — tarjimaning eng kreativ darajasi bo‘lib, bunda tarjimon so‘zlarni emas, balki vaziyatni (kontekstni) tarjima qiladi. Masalan, *“You know what kids, I think we might be done”*kabi o‘ta uzun va kirish so‘zlarga boy jumlani shunchaki *“Bo‘ldi, tugatamiz”* deb o‘girish, ma’noviy kompressiyaning eng samarali ko‘rinishidir. Bu orqali tarjima tili bolalar uchun jonli, lo‘nda va tushunarli bo‘ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, animatsion filmlar tarjimasida qo‘llaniladigan lisoniy strategiyalar shunchaki texnik jarayon emas, balki bolalar kognitiv rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi multimodal vositadir. Biz tomonimizdan taklif etilgan “Scaffolded Interpretation Model” (Bosqichma-bosqich tarjima modeli) bolaning media-kontentni o‘zlashtirishini ikki muhim bosqichga: kontekstni anglash (dublyaj orqali) va lisoniy qiyoslashga (sinxron tarjima orqali) ajratadi. Ushbu modelning o‘ziga xosligi shundaki, birinchi bosqichda bola syujet bilan tanishib, o‘zi uchun kognitiv poydevor yaratadi. Ikkinchi bosqichda esa, diqqat-e’tiborini voqelikni tushunishga emas, balki asl va tarjima tili o‘rtasidagi lisoniy parallellarni anglashga qaratadi. Eksperimentlarimiz shuni isbotladiki, ushbu metodik yondashuv bolaning lug‘at boyligini an’anaviy usullarga qaraganda 20-25% ga tezroq boyitish imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, sinxron tarjimani mazkur model asosida tashkil etish uni yordamchi vositadan to‘laqonli multimodal ta’lim resursiga aylantiradi. Bu esa o‘z navbatida, o‘zbek tarjimashunosligida audiovizual materiallarni bolalar idrokiga moslashtirishning yangi va samarali metodologiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sweller, J. *Cognitive Load Theory, Learning Difficulty, and Instructional Design.* Learning and Instruction, 1994.
2. Chaume, F. *Audiovisual Translation: Dubbing.* Routledge, 2012.
3. Gile, D. *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training.* John Benjamins Publishing, 2009.
4. Díaz Cintas, J., & Remael, A. *Audiovisual Translation: Subtitling.* Routledge, 2014.
5. Mayer, R. E. *Multimedia Learning.* Cambridge University Press, 2001.
6. Chernov, G. V. *Inference and Anticipation in Simultaneous Interpreting.* John Benjamins, 2004.
7. Safarov, Sh. *Pragmalingvistika.* Toshkent, 2008.
8. Visson, L. *Sinxronniy perevod s russkogo na angliyskiy.* Moskva, 2007.